Application of modern information systems in the assessment of the technical condition of the equipment of electrical energy networks.....	924
Sobirov Muzaffar Azatovich	
Стратегическое управление экономическим потенциалом Узбекистана.....	932
Садуллаева Муслимахон Саидамировна	
Auditda raqamli texnologiyalarni qo'llash tarixi va istiqbollari.....	936
Muydinov Erkin Djамалdinovich	
Bank majburiyatlari va aktivlarining vaqtinchalik nomutanosibliklari riskini kamaytirish.....	940
Ibrohimov D.M.	
Priority directions and legal bases of improving of the tax system of the Republic of Uzbekistan.....	945
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik va bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.....	950
Karshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun ijtimoiy himoya va mehnat bozoriga kirishni kuchaytirish.....	954
Mamashokirova Iroda Samar qizi	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligini nazariy asoslari.....	958
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Региональный туристский кластер – как инструмент повышения эффективности экономики региона.....	965
Юсупова Нигина Тажиевна	
Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
Xoliyov Murod Qahramon o'g'li	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию	977
Шарипова Шахло Истамовна	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari.....	982
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	986
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili	994
To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li	
Advancing tourist safety management in Uzbekistan's growing tourism industry: a systems theory approach.....	999
Laylo Primova	
Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar.....	1006
Yerejepova Bibisara Abibullayevna	
Основные проблемы и вызовы в создании умных городов	1010
Хакбердиева Нозима Кахрамоновна	
Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlari.....	1015
Asadova Maftuna Sa'dullaevna	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish.....	1020
Ismailov Temur Pulatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili	1024
Sharipov R.S.	



PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI SAMARADORLIGI: STATISTIK KO'RSATKICHLAR VA EKONOMETRIK MODELLARNING TAHLILI

Sharipov R.S.

GGT MCHJ qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha
bosh direktor o'rinbosari, e-mail. rasul.sh@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Xorazm viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellar tahlil qilingan. Tadqiqotda ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, resurslardan foydalanish, investitsion samaradorlik va hududiy iqtisodiy integratsiya mezonlari baholash omillari sifatida qo'llanilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda viloyatda to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish hajmining dinamikasi o'rganilgan. Statistik tahlil klasterlarning rivojlanish sur'atlarini ochib bergan bo'lsa, ekonometrik modellar ishlab chiqarish va eksport prognozlarini shakllantirish imkonini yaratdi. Natijalar klasterlarning nafaqat ishlab chiqarish samaradorligi, balki hududiy barqarorlik va milliy iqtisodiyot integratsiyasida ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Paxta-to'qimachilik klasterlari, samaradorlik, statistik ko'rsatkichlar, ekonometrik modellashtrish, eksport, hududiy integratsiya.

Abstract: The article analyzes the efficiency of cotton-textile clusters in Khorezm region based on statistical indicators and econometric models. The research employs production volume, export potential, resource utilization, investment efficiency, and regional economic integration as the main evaluation criteria. In addition, the dynamics of textile and garment production volumes in recent years in the region have been examined. Statistical analysis reveals the development trends of clusters, while econometric models provide opportunities for forecasting production and export. The findings demonstrate that cotton-textile clusters serve not only as a driver of production efficiency but also play a crucial role in ensuring regional stability and integration with the national economy.

Key words: Cotton-textile clusters, efficiency, statistical indicators, econometric modeling, export, regional integration.

Аннотация: В статье проводится анализ эффективности хлопково-текстильных кластеров Хорезмской области на основе статистических показателей и эконометрических моделей. В качестве основных критериев оценки использованы объем производства, экспортный потенциал, использование ресурсов, инвестиционная эффективность и региональная экономическая интеграция. Кроме того, изучена динамика объемов производства текстильной и швейной продукции в регионе за последние годы. Статистический анализ выявил тенденции развития кластеров, тогда как эконометрические модели позволили сформировать прогнозы производства и экспорта. Полученные результаты показывают, что хлопково-текстильные кластеры выступают не только драйвером производственной эффективности, но и играют важную роль в обеспечении региональной стабильности и интеграции с национальной экономикой.

Ключевые слова: Хлопково-текстильные кластеры, эффективность, статистические показатели, эконометрическое моделирование, экспорт, региональная интеграция.

KIRISH

Paxta-to'qimachilik sanoati Xorazm viloyatining hududiy iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadigan asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu soha nafaqat xomashyo yetishtirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini, balki eksport salohiyati, investitsion oqimlar va resurslardan foydalanish samaradorligini ham o'zida mujassamlashtiradi. Viloyatdagi klasterlar faoliyati iqtisodiy diversifikatsiya, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy integratsiya jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida paxta-to'qimachilik sanoati iqtisodiyotning "drayver" tarmoqlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiyada ip-kalava mahsulotlarini 100 foizgacha qayta



ishlash, shuningdek, ichki va tashqi bozorda yuqori sifatli mato va tayyor mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida 400 ming tonna sun'iy va aralash tolalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish vazifalari ilgari surilgan. Ushbu maqsadlar paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini oshirish, hududiy sanoat salohiyatini to'liq ishga solish hamda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish zarurligini yaqqol ko'rsatib bermoqda [1].

So'nggi yillarda paxta-to'qimachilik klasterlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va tayyor mahsulot eksportini oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish, xorijiy bozorlar bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish va investitsiyalarni jalb etish orqali tarmoqning iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada ortmoqda.

Bu jarayonlar nafaqat viloyat iqtisodiyotida barqaror o'sishni ta'minlash, balki milliy iqtisodiyotning global bozorga integratsiya darajasini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, paxta-to'qimachilik klasterlarining samaradorligini ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali baholash va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini belgilash bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir [2]. Statistik ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan empirik tahlillar va ekonometrik modellashirish metodlari bu jarayonning kompleks mohiyatini ochib berish, istiqboldagi prognozlarni shakllantirish va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, R.Akhmedova [3] o'z ilmiy ishida paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va hududiy iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishdagi muhim rolini alohida ta'kidlaydi. J. Babadjanov [4] esa klasterlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, ularning sanoat siyosati bilan uyg'unlashuvi va samaradorlik darajasini tahlil etadi. Shuningdek, T. Kholikova [5] klasterlar faoliyatini baholashda ko'p omilli ekonometrik modellar qo'llanishi samaradorlikni chuqur tahlil qilish va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini prognozlash imkonini berishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi statistik ko'rsatkichlar tahlili va ekonometrik modellarning afzalliklari asosida solishtirilib baholandi. Shuningdek, to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarish dinamikasi bo'yicha tendension tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi-bu klasterlar ichidagi ishlab chiqarish korxonalari, resurslar, logistika va bozor mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali ishlab chiqarish hajmi, sifat, eksport salohiyati va iqtisodiy foydalilikni maksimal darajada ta'minlash darajasi sifatida tushuniladi.

Samaradorlikni aniqlashda ishlab chiqarish hajmi va sifati, eksport salohiyati hamda iqtisodiy foydalilik asosiy mezon sifatida baholanadi. Bunday yondashuv klasterlarning nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasini ham ko'rsatadi.

1-jadval. Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini baholash mezonlari

Samaradorlik mezonlari	Ko'rsatkichlar
Ishlab chiqarish samaradorligi	Paxta tolasi va tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi
Eksport salohiyati	Tayyor mahsulot va paxta matolarini xorij bozorlariga yetkazish qobiliyati va eksport hajmi
Resurslardan foydalanish samaradorligi	Xomashyo, mehnat resurslari va investitsiyalarni optimal ishlatish
Investitsiya samaradorligi	Yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish liniyalari va qayta ishlash sanoatiga jalb qilingan investitsiyalarning tarmoq samaradorligiga ta'siri
Hududiy iqtisodiy integratsiya	Klasterlar viloyat va milliy iqtisodiyot bilan uzviy bog'langanligi, hududiy diversifikatsiya va barqaror o'sish darajasiga ta'siri



Ishlab chiqarish samaradorligi – bu mezon klasterlarda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi va tayyor mahsulot hajmlari hamda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi orqali aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkich ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan qay darajada oqilona foydalanilayotganini, mahsulot tannarxi va sifatining o'zgarishini hamda texnologik jarayonlarning takomillashuvini baholash imkonini beradi.

Eksport salohiyati – klasterlarning xalqaro bozorlarga chiqish qobiliyati va eksport hajmlarini ifodalaydi. Bu mezon tayyor mahsulot va paxta matolarining xorijiy bozorlarga yetkazilishi, mahsulot sifati, narx raqobatbardoshligi hamda eksport geografiyasining kengayishi orqali baholanadi. Eksport salohiyatining yuqoriligi klasterlarning milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan ulushini oshiradi va tashqi savdo balansini mustahkamlaydi.

Resurslardan foydalanish samaradorligi – ishlab chiqarish jarayonida xomashyo, mehnat resurslari va jalb qilingan investitsiyalardan oqilona foydalanish darajasini ko'rsatadi. Ushbu mezon resurslarning isrof bo'lmashligini, energiya va moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanishni, shuningdek, mehnat unumdorligi va kapital qo'yilmalarning qaytishini aniqlash imkonini beradi.

Investitsiya samaradorligi – klasterlarga jalb qilingan investitsiyalar, ularning texnologik yangilanish, ishlab chiqarish liniyalarini kengaytirish, innovatsion uskunalarni joriy etish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishdagi o'rnini baholaydi. Bu ko'rsatkich investitsiyalar samaradorligi va ular orqali hosil bo'ladigan qo'shimcha iqtisodiy foydani tahlil qilishga xizmat qiladi.

Hududiy iqtisodiy integratsiya – klasterlarning viloyat iqtisodiyoti va milliy ishlab chiqarish tizimi bilan uzviy bog'liqligini ifodalaydi. Bu mezon klasterlarning hududiy diversifikatsiya jarayonlaridagi o'ri, boshqa tarmoqlar bilan kooperatsiyasi, yangi ish o'rinlari yaratishdagi samarasi hamda barqaror hududiy iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi orqali aniqlanadi [6-9].

2025-yil yanvar–mart oylarida Xorazm viloyatidan xorijga 11,3 mln AQSH dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilingan. Ushbu ko'rsatkich viloyat umumiy eksportining 11,5 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga kamaygan. Eksport tarkibida paxta matolari 45,0 % va tayyor to'qimachilik mahsulotlari 26,0 % ulush bilan yetakchi bo'lib, bu viloyat to'qimachilik sanoatining diversifikatsiya jarayonining bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, viloyat sanoatida ishlab chiqarish hajmlarining sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. 2024-yilning yanvar–noyabr oylarida yirik sanoat korxonalari tomonidan 95,8 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarilgan bo'lib, bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,9 % o'sish demakdir. Statistik dinamikaga ko'ra, 2022–2024-yillarda ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari mos ravishda 97,8 %, 126,5 % va 108,9 % ni tashkil qilgan. Ushbu raqamlar paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish quvvatlari bosqichma-bosqich kengayib borayotganini, lekin o'sish sur'atlarining davriy farqlanishi sohada barqarorlashtiruvchi mexanizmlarning zarurligini ko'rsatadi [10].

Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini baholashda statistik ko'rsatkichlar asosiy empirik manba hisoblanadi. Ular nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining hajmi va dinamikasini, balki klasterlarning hududiy iqtisodiyotdagi o'ri va iqtisodiy samaradorligini ham aniqlash imkonini beradi. Jumladan, paxta tolasi va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi hamda mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar ishlab chiqarish samaradorligini tavsiflaydi.

Eksport salohiyati ko'rsatkichlari tayyor mahsulot va paxta matolarining xorijiy bozorlar ulushini, eksport hajmining o'sish sur'atlarini hamda klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, resurslardan foydalanish samaradorligini o'lchovchi ko'rsatkichlar xomashyo, mehnat resurslari va investitsiyalarni optimal taqsimlash darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Investitsiya samaradorligini baholashda esa yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish liniyalari va qayta ishlash sanoatiga jalb etilgan investitsiyalarning ishlab chiqarish va eksport hajmiga ta'siri tahlil qilinadi. Hududiy iqtisodiy integratsiya ko'rsatkichlari esa klasterlarning viloyat va milliy iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligi, hududiy diversifikatsiya darajasi hamda barqaror iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini aks ettiradi.

Umuman olganda, statistik ko'rsatkichlar klasterlarning ishlab chiqarish, moliyaviy va tashqi iqtisodiy faoliyatini ob'ektiv baholash bilan birga, ularning samaradorligini oshirish omillarini aniqlash hamda ekonometrik modellar qurish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini aniqlashda ishlab chiqarish hajmlarini ifodalovchi statistik ma'lumotlardan foydalanish zarur. Jumladan, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm) klaster faoliyatining xomashyo bazasidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarda yaratilgan qo'shimcha qiymat darajasini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning o'sishi ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, yangi texnologiyalar joriy etilishi hamda ichki va tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulot yetkazib berilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, kiyim ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm) klasterning yuqori qayta ishlash bosqichida shakllanadigan iqtisodiy samaradorlikni aks ettiradi. Bu ko'rsatkichning barqaror o'sishi nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirish, balki eksport salohiyatini kengaytirish orqali hududiy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir qiladi.



2-jadval. 2010–2024 yillarda Xorazm viloyatida to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish hajmining dinamikasi

Yillar	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (mlrd. so'm)	Kiyim ishlab chiqarish (mlrd. so'm)
2010	153,7	3,0
2011	208,4	4,1
2012	248,0	4,9
2013	317,2	6,2
2014	469,7	9,2
2015	639,7	12,6
2016	699,6	13,8
2017	1007,2	36,1
2018	1568,5	59,1
2019	1677,2	21,5
2020	2056,2	63,3
2021	3072,3	95,0
2022	3782,2	103,7
2023	4096,9	148,0
2024	5417,8	392,4
2024/2010 nisbat, barobar	35,24	129,69

Yuqoridagi ikki ko'rsatkich asosida paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini statistik jihatdan baholash va dinamik o'zgarishlarini tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi[10-11].

2010–2024-yillar davrida Xorazm viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati sezilarli miqyosda kengaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yildagi 153,7 mlrd so'mdan 2024-yilda 5417,8 mlrd so'mgacha ortib, 35,24 baravarga yaqin o'sishni namoyon etdi. Xuddi shuningdek, kiyim ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda atigi 3,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 392,4 mlrd so'mga yetib, 129,69 martadan ortiq o'sishga erishgan. Bu ko'rsatkichlar klasterlarning hududiy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirganini, ishlab chiqarish quvvatlarining bosqichma-bosqich kengayib borayotganini va yangi bozor imkoniyatlaridan foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, to'qimachilik ishlab chiqarish hajmlarining o'rtacha qiymati 1694,3 mlrd so'm, dispersiyasi yuqori bo'lib, standart og'ishi 1621,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu o'sish sur'atlarining dinamik va keskin tebranishlar bilan kechganini ko'rsatadi. Kiyim ishlab chiqarish hajmlarining o'rtacha qiymati 64,8 mlrd so'm, standart og'ishi esa 100,8 mlrd so'mni tashkil etdi, bu esa ushbu segmentning bozor talablariga va investitsion jarayonlarga nisbatan juda sezgir ekanini anglatadi. Statistik ko'rsatkichlardagi yuqori og'ishlar klaster faoliyatining tashqi va ichki omillarga, xususan, xomashyo bazasi, texnologik yangilanishlar va eksport talabiga bevosita bog'liqligini ifodalaydi.

Tendensiyalar tahlil shuni ko'rsatadiki, 2010–2016-yillar mobaynida ishlab chiqarish hajmlari asta-sekin o'sib borgan bo'lsa, 2017-yildan boshlab keskin burilish davri kuzatiladi. Xususan, 2017–2021-yillar oralig'ida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi deyarli 3 baravardan ortiq oshgan, 2021–2024-yillarda esa o'sish sur'atlari yanada jadallashib, tarmoqda barqaror yuqori dinamikani ta'minlagan. Kiyim ishlab chiqarish segmentida esa ayrim yillarda (masalan, 2019-yilda) qisqa muddatli pasayishlar kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya keskin o'sishga yo'naltirilgan bo'lib, sohada mahsulot diversifikatsiyasi va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari kengayib borgan.

Umuman olganda, statistik va tendensiyalar tahlillar shuni tasdiqlaydiki, Xorazm viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlari iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish hajmlari va eksport salohiyatini oshirish orqali nafaqat hududiy, balki milliy iqtisodiyot uchun ham muhim drayver sifatida shakllanmoqda. Shu jarayonda statistik ko'rsatkichlar klasterlarning intensiv rivojlanishini tasdiqlaydi, tendensiyalar esa uzoq muddatda barqaror o'sish va iqtisodiy integratsiyaning mustahkamlanishini prognoz qilish imkonini beradi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish va ularning samaradorligini baholash jarayonida ekonometrik modellar alohida o'rin tutadi. Mazkur yondashuv klasterlarning ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, resurslardan foydalanish samaradorligi va investitsion jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.



Ekonometrik modellardan foydalanish orqali nafaqat mavjud holat baholanadi, balki kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ham prognoz qilinadi. Quydagi 3-jadvalda paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan asosiy ekonometrik modellar, ularning ilmiy afzalliklari hamda kutilayotgan natijalar tizimli ravishda yoritilgan bo'lib, bu holat klasterlar faoliyatini kompleks baholash va strategik qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asos yaratadi.

3-jadval. Paxta-to'qimachilik klasterlarining samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan ekonometrik modellar

3-jadval	Ilmiy afzalligi	Kutilayotgan natijalar
Oddiy va ko'p o'zgaruvchili regressiya	Klasterlarning ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlariga investitsiya, mehnat va xomashyo omillarining ta'sirini kvantifikatsiya qilish imkonini beradi	Har bir omilning klaster samaradorligiga hissassi aniqlanadi va resurslardan optimal foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi
Dinamik regressiya / vaqt qatori modellari	Ishlab chiqarish hajmi va eksport sur'atlarining vaqt bo'yicha o'zgarishini prognozlash imkonini beradi	Kelgusidagi ishlab chiqarish quvvatlari va eksport salohiyati rejalashtiriladi, barqaror o'sish mexanizmlari shakllantiriladi
Panel ma'lumotlar modellar	Turli korxonalar va hududlar bo'yicha ko'p o'lchovli ma'lumotlarni tahlil qilish va hududiy farqlarni hisobga olish imkonini beradi	Hududiy diversifikatsiya va klasterlarning integratsiya darajasi baholanadi, samaradorlikni oshirish strategiyalari ishlab chiqiladi
Ko'p omilli regressiya modellari	Ishlab chiqarish samaradorligi va eksport salohiyatini belgilovchi turli ichki va tashqi omillarni bir vaqtning o'zida tahlil qilish imkonini beradi	Strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib, investitsiya va resurslarni optimal taqsimlash hamda barqaror o'sishni ta'minlash imkonini beradi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir model klasterlar samaradorligini turli jihatdan baholash imkonini beradi. Oddiy regressiya modellari har bir omilning samaradorlikka hissasini aniqlashda qo'llanilsa, dinamik va vaqt qatori modellari ishlab chiqarish va eksport sur'atlarini prognozlash imkonini beradi. Panel ma'lumotlar modellar hududiy farqlarni inobatga oladi, ko'p omilli va struktural regressiya modellari esa ichki va tashqi omillarni bir vaqtning o'zida tahlil qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish uchun asos yaratadi. Shu tarzda, ekonometrik yondashuv klasterlar rivojini optimallashtirish va hududiy iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar paxta-to'qimachilik klasterlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, klasterlash jarayoni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va resurslardan oqilona foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, klasterlarning rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish va ularning hududiy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini baholashda ekonometrik modellardan foydalanish muhim metodologik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv klaster faoliyatidagi muhim omillarni aniqlash, o'zaro bog'liqliklarni ochib berish hamda kelgusidagi prognozlarni ilmiy asosda shakllantirish imkonini beradi.

Natijalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: ishlab chiqarish zanjiridagi barcha bosqichlarni zamonaviy boshqaruv mexanizmlari orqali muvofiqlashtirish, tashqi bozorlar uchun yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash orqali ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash lozim. Bundan tashqari, kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilarni klaster tizimiga keng jalb etish hududiy iqtisodiy muvozanatni saqlash va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish nafaqat sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish, balki hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jarayonda ekonometrik modellar qurish va ularni amaliyotga joriy etish klasterlarning samaradorligini ilmiy asosda baholash, kelajakdagi rivojlanish strategiyasini belgilash va kompleks boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida farmoni, 11-sentabr 2023.
2. Juraev F. D. S. (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agronomic System In A Market Economy. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 49-54.
3. R. Akhmedova, "Economic Efficiency Analysis of Textile Clusters: In Case of Uzbekistan," Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR), vol. 14, no. 1, pp. 8–12, Jun. 2024.



4. J. Babadjanov and M. Petrick, "Uzbekistan's cotton clusters in the context of the industrial policy debate," *Eurasian Geography and Economics*, vol. 66, no. 3, pp. 354–383, 2023, doi: 10.1080/15387216.2023.2267093.
5. T. Khalikov and L. Ga, "Ways to Increase The Economic Efficiency of Production Processes in Cotton and Textile Clusters," *American Journal of Economics and Business Management*, vol. 8, no. 3, pp. 1007–1012, 2023, doi: 10.31150/ajeblm.v8i3.336.
6. Chen, F., Ahmad, S., Jiang, G., & Chen, J. (2023). Factors Affecting Textiles Products Exports of Major Producers: A Gravity Model Approach. *SAGE Open*, 13(4). <https://doi.org/10.1177/21582440231213688>
7. Rahman, M. M. Textile Export Nexus in Bangladesh: An Econometric Exploration. Preprints 2023, 2023091884. <https://doi.org/10.20944/preprints202309.1884.v1>
8. Alok Kumar Yadav, Utpal Chattopadhyay, Determinants of India's cotton export performance: An empirical analysis, *International Economics*, Volume 179, 2024, 100521, ISSN 2110-7017, <https://doi.org/10.1016/j.inteco.2024.100521>.
9. Bhuyan M. I., Oh K. Y. (2021). Exports and inequality: Evidence from the highly concentrated textile and garment sector of Bangladesh. *Journal of South Asian Development*, 16, 293–309.
10. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
11. <https://stat.uz/uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>